



UDK: 111:00.12.04-07.3 (0-32)

**Bahrom JUMAYEV,**  
*Qarshi davlat universiteti bo'limi boshlig'i, PhD*  
*E-mail: bahromjumayev@bk.ru*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti professori, DSc B.Omonov taqrizi asosida*

## TARIXIY XOTIRANI SHAKLLANTIRISHDA TARIXIY SHAXSLAR MEROSIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Аннотация

O'zbekistonda mustaqillik yillarida tarixga va tarixiy xotirani shakllantiish muammolariga bo'lgan qiziqish oshdi. Bugun xalqimiz, millatimiz o'zining tarixiy ildizlarini, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan tarixiy-madaniy merosni o'rganishga Yangi O'zbekistonni, Uchinchi renessans poydevorini barpo etish sharti sifatida qaramoqda. Ushbu fenomen o'zining ilmiy, gnoseologik va ijtimoiy amaliy ahamiyatiga egadir.

**Kalit so'zlar:** Tarixiy bilim, tarixiy ong, tarixiy tafakkur, fenomen, madaniy meros, ijtimoiy tarixiy voqelik, etnometodologik xususiyat, milliy o'zlikni anglash, tarixiy - madaniy paradigma.

## ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАСЛЕДИЯ ИСТОРИЧЕСКИХ ЛИЧНОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ИСТОРИЧЕСКОЙ ПАМЯТИ

Аннотация

В Узбекистане в годы независимости возрос интерес к истории и проблемам формирования исторической памяти. Сегодня наш народ, нация рассматривают изучение своих исторических корней, историко-культурного наследия, оставленного нашими великими предками, как условие построения нового Узбекистана, фундамента третьего возрождения. Это явление имеет свое научное, эпистемологическое и социально-практическое значение.

**Ключевые слова:** Историческое знание, историческое сознание, историческое мышление, феномен, культурное наследие, социально-историческая действительность, этнометодологический признак, национальное самосознание, историко-культурная парадигма.

## THE IMPORTANCE OF USING THE HERITAGE OF HISTORICAL FIGURES IN FORMING HISTORICAL MEMORY

Annotation

During the years of independence in Uzbekistan, interest in history and the problems of shaping historical memory increased. Today, our people, our nation are looking to the study of its historical roots, the historical and cultural heritage left by our great ancestors, as a condition for the establishment of a new Uzbekistan, the foundation of the third Renaissance. This phenomenon has its own scientific, gnoseological and social practical significance.

**Key words:** Historical knowledge, historical consciousness, historical thinking, phenomenon, cultural heritage, social historical reality, ethnomethodological feature, national self - realization, historical-cultural paradigm.

**Kirish.** Ijtimoiy-tarixiy hayotda shaxsning roli masalasi hanuzgacha turli bahslarni, munozaralarni uyg'otib keladi. Plutarx asosan qahramon shaxslarni, sarkarda va shohlar hayotini ibratli misol, ijtimoiy-tarixiy hayotni harakatlantiruvchi kuch sifatida tasvirlaydi. Uning asarlarida mashhur sarkardalar, shohlar ijtimoiy-tarixiy hayotlarni boshqaruvchi, u yoki bu tomonga yo'naltiruvchi kuchlar sifatida keladi[1].

**Muhokama va natijalar.** Tarixni qahramon shaxslar hayoti va faoliyati bilan bog'lash an'anasining shakllanishida shotlandiyalik Tomas Karleylning alohida o'rni bor. Aynan u, "jahon tarixi mohiyatan buyuk kishilar tarixidir"[2], degan xulosaga kelgan. "Bu dunyoda qilingan barcha narsalar, mohiyatan bizning ushbu hayotimiz buyuk kishilar fikrlarining ro'yobga chiqarilishi va amaliyotga tadbiiq, etilishi, moddiylashtirilishidir"[2], deb yozadi Tomas Karleyl. Rus faylasufi G.V.Plexanov o'zining "Tarixda shaxsning roliga doir" asarida ochib bergan va ushbu masalani hayotiy, materialistik nuqtai nazardan yoritgan. Uning fikriga ko'ra, XVIII asrda Yevropada ro'y bergan ijtimoiy-tarixiy voqealardan keyin "tarix u yoki bu darajada olijanob va ma'rifatli kishilar ishi deyish mumkin bo'lmaydi"[3]. Shu bilan birga, G.V.Plexanov ijtimoiy-tarixiy hayotda buyuk

kishilarning yetakchilik rolini mutlaq, inkor etmadi, balki ular talanti, iqtidori muhim voqea, hodisa bo'lishini qayq etdi. "Ammo, – deb yozadi G.V.Plexanov, – shaxs o'zining iqtidorini jamiyatda zarur holatini egallaganidagina namoyon etgan. Ijtimoiy borliqning deterministik ta'siri shaxsan faollashtirgan.

Chunki uning ijtimoiy tuzilishi shuni taqozo etardi. Aynan ushbu ijtimoiy tuzilish iqtidorli yoki iqtidorsiz kishining qismatiga tushadigan roldir: shu jumladan, uning ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi"[3].

Faylasufning xulosasiga ko'ra, shaxsning ijtimoiy-tarixiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatishi uchun ikki shart-sharoit zarurdir. Birinchidan, shaxsning iqtidori boshqalarnikidan ko'proq, davrning ijtimoiy talablariga muvofiq, kelishi; ikkinchidan, mavjud ijtimoiy tuzum shaxs intilishlariga g'ov bo'lmasligi kerak[3]. Demak, shaxsning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotda o'z qobiliyatini to'la namoyon qilishi ijtimoiy munosabatlarga, talablarga bog'liq; bu o'rinda ijtimoiy determinizm qonuni amal qiladi.

Milliy tarixiy ong va xotiraning shakllanishida milliy qahramonlar, u yoki bu davrda jamiyatni, kishilarni o'z ketidan ergashtirgan buyuk shaxslar muhim o'rin tutadi. Aynan shuning

uchun ham davr yangi qahramonlarga, ideallarga muhtoj bo'lganida tarixiy shaxslar hayoti, ijodi va faoliyatiga murojaat etadi, ularning obrazlaridan qahramonlar, namunalar yasab, yosh avlodga taqdim etadi.

Jadidlar “Sho'roi Islomiya”, “Ittifoqi musulimiya”, “Turon” kabi bir qator ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar tuzib, mustaqillik uchun kurash olib bordilar. Rossiyada amalga oshirilgan fevral revolyutsiyasi, keyin oktabr to'ntarilishi ularga rejalarini ro'yobga chiqarishga imkon bermadi. Balki aksincha, “ular mustaqillik haqidagi g'oyalari uchun 1929, 1937–1938-yillarda ommaviy tarzda qirg'in qilindilar”.

O'sha paytda hukmronlik qilgan tuzum va mafkura, o'z maqsadiga muvofiq, kelmaydigan qarashlarni, harakatlarni kuch bilan yo'q qildi. Ammo bu buyuk shaxslarning sa'y-harakatlarini, ular qoldirgan milliy g'oya va merosni batamom xalq, qalbidan, tarixidan o'chirolmadi.

G.V.Plexanov ijtimoiy determinizmni ustun qo'yar ekan, ijtimoiy-tarixiy rivojlanish qonuniyatlariga tayanadi, ya'ni inson o'z taqdirini ijtimoiy taraqqiyot talablariga muvofiq amalga oshirganidagina u jamiyat ruhiyatiga, hayotiga, kelgusi taqdiriga hal qiluvchi ta'sir etadi, deb biladi. “Ijtimoiy ruhiyatga ta'sir etish, – deb yozadi u, – demak, tarixiy voqealarga ta'sir etishdir. Shu bois ham men tarixni yaratishim mumkin, mening uning yaratilishini kutib o'tirishimga hojat yo'q”[3].

Bu bilan faylasuf ijtimoiy determinizm bilan birga shaxsning faolligini ham tan oladi.

Bizning fikrimizcha, buyuk shaxslardagi kelgusi avlodlar va ularda tarixiy xotirani shakllantiruvchi ibratli fazilatlar quyidagilarda namoyon bo'ladi.

1. Ijtimoiy-tarixiy hayotga ta'sir etib, o'zining iqtidorini, sifatlarini to'la namoyon etgan buyuk shaxslarda ijtimoiy-tarixiy borliqni o'zgartirish zarurligini sezish tuyg'usi kuchli rivojlangan bo'ladi. Bunday shaxslar haqiqiy qahramon, yetakchi sifatida ijtimoiy borliqda ko'p zamondoshlari ilg'amagan, tan olishni istamagan tartiblarni, qoidalarni, qarashlarni olib kiradi. “Bunday kishi amalda turli qahramonliklarni o'zida mujassam etadi, – deb yozadi T. Karleyl, – u yetakchi, ustoz, umuman samoviy va dunyoviy fazilatlariga ega bo'ladi, unda biz insonda tasavvur etadigan barcha xislatlar qaror topadi”[2].

Faylasuf, barcha ijtimoiy-tarixiy va siyosiy hayot ana shunday yetakchiga, ustozga, rahnomaga ehtiyoj sezadi, deb hisoblaydi. Chunki har bir ijtimoiy birlik – davlat, jamiyat, oila, parlament, muassasa rahnomaga, yetakchiga muhtojdir, ular shunday shaxsga muhtoj ekanini instinktiv sezadilar va o'z irodasini, ixtiyorini, qiziqishlarini ushbu shaxslar ko'rsatmalari va da'vatlari bilan muvofiqlashtirishga intiladilar. Bu xislatni “ijtimoiy instinkt” deyish mumkin, chunki uning negizida ijtimoiy birlikni asrash o'yi, niyati yotadi. T.Karleyl shunday qahramonlar sifatida Kromvel va Napoleoni keltiradi. To'g'ri, ushbu tarixiy shaxslar – Kromvel inglizlar, Napoleon esa fransuzlar milliy ongiga, ularning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotdagi o'rnini anglashiga ta'sir etdilar.

O'zbekiston yoshlarida milliy tarixiy ong va tarixiy xotirani shakllantirishda namuna, ibrat bo'ladigan shaxslardan biri Shavkat Mirziyoyevdir. U mamlakat tubdan islohotlarga muhtoj bo'lgan, davlat boshqaruvida adolatsizlik, korrupsiya, sanxonlik avj olgan, avtokratizm milliy taraqqiyotga to'siq bo'lgan bir paytda davlat tepasiga keldi. Davlatimiz rahbari tomonidan 2017–2021 yillar ichida 4 mingdan (bugunga qadar 6 mingdan oshiq) ziyod qaror va farmonlar, 300 (bugunga qadar 420)dan oshiq qonunlar qabul qilindi. Mamlakatni innovatsion rivojlantirish va 2030 yilga borib O'zbekistonni rivojlangan davlat qatoriga olib chiqish Prezidentimizning strategik maqsadidir. Oliy o'quv yurtlari sonining 200 dan oshgani, 2030 yilga borib yoshlarni qabul qilish 60 foizga yetishi

mo'ljallangani islohotlar shiddatidan darak beradi. Xalqimiz tarixiy-madaniy merosini tiklash, milliy urf-odatlar va an'analarni rivojlantirish, yuksak ma'naviyat va madaniyatli yosh avlodni tarbiyalash konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bu o'zgarishlar mamlakatimiz va xalqimiz uchun fundamental ahamiyatga ega. Davlat institutlarini xalq manfaatlariga xizmat qildirishdek ulkan, murakkab vazifani bajargani uchun ham Shavkat Mirziyoyev xalq qahramoni sifatida tarixga kiradi.

O'zining fidokorona mehnati, ijodiy ishlari, yosh avlodni tarbiyalashga qo'shayotgan hissalari bilan yurtimizda e'tibor topgan shaxs O'zbekiston Qahramonlari ko'p. Ularning soni 103 ta. Ularning har biri yosh avlodni tarbiyalashda ideal, namuna bo'lishi mumkin.

2. Buyuk shaxslar kishilarni birlashtirib, ularni o'z ketidan ergashtirish qobiliyatiga ega psixolog, rahbar va tashkilotchidir. Aynan ushbu fazilatlar bilan ular qolgan kishilardan ajralib turadilar.

Ularda vaziyatni, kishilar kayfiyatini va maqsadlarini to'g'ri anglash, payqash tuyg'usi kuchli rivojlangan bo'ladi. Fidoyilik, eksentriзм, o'z manfaatlarini ijtimoiy manfaatlariga xizmat qildirish, tashkilotchilikni, boshqarishni o'z ustiga olish yuqoridagi shaxslarga xos xislatdir. Yoshlar buyuk shaxslardagi, umuman, o'zidan yuqori yoshdagi biror hayotiy yutuqlarga erishgan kishilardagi ibrat olgulik fazilatlar qatorida “yaxshi tashkilotchi”, “insonlarni tushunadigan ruhshunos”, “dilkash ustoz, rahbar” kabi fazilatlarini tilga oladilar. Masalan, “Amir Temurdagi qaysi fazilatlar sizga ko'proq havas uyg'otadi?” degan savolga respondentlarimizning 47 foizi “o'z hayotini Vatani manfaatlariga bag'ishlash”, 28 foizi “mohir sarkarda, yo'lboshchi”, 11 foizi “yirik davlat arbobi, siyosatchi”, 9 foizi “ma'naviyat, din, madaniyat homiysi”, 3 foizi “jismanon baquvvat, kuchli”, 2 foizi “usta, mohir jangchi”, deb ko'rsatgan. Ko'rinib turibdiki, respondent yoshlar Amir Temurdagi fidoyilikni, el, yurt, manfaatlariga xizmat qilishni ibratli fazilat qatorida qayd etadilar. Albatta, undagi sarkardalik, yirik davlat arbobi, siyosatchi xislatlari ham yaqqol namoyon bo'ladi. “Temur nafaqat buyuk davlat arbobi, balki strategiyasi va taktikasi hanuzga qadar o'rganilayotgan buyuk lashkarboshilardan biri hisoblanadi. U, shubhasiz, daho shaxs, biroq fe'l-atvori murakkab va ziddiyatli”[4].

Buyuk shaxslarda ziddiyatli tomonlar uchrashini falsafa fanlari doktori, professor V. Alimasov ham ta'kidlaydi. U yozadi: “Yuksak qobiliyat, noyob iqtidor ijodkorni viqorli, ziddiyatli shaxsga aylantiradi. Uning yon-atrofdan, mavjud tartiblardan qoniqmasligi, noan'anaviy fikrlarni ilgari surishi turli ziddiyatlarni keltirib chiqaradi... Masalan, Shopengauer qo'lyozmalarini kitob holidan chop ettirishga tayyorlagan bo'lsa-da, ularni oila a'zolaridan berkitib yurgan. O'zi falsafa bilan shug'ullangan va o'zini faylasuf deb atashlarini yoqtirgan, ammo falsafa professorlarini jinidan battar yomon ko'rgan. Fr.Nitsche o'zi shakllangan va mahsuli bo'lgan ikki ming yillik G'arb, ayniqsa, xristianlik madaniyati, dini, axloqiga qarshi jang e'lon qiladi, yangi axloq, madaniyat va Alpodam (“Sverxchelovek”) yaratishni orzu qiladi. R.Dekard, F.Bekon, D.Yum, Feyyerbax, Marks o'zidan oldingi faylasuflarga qarshi chiqdilar va ular merosiga shubha bilan qaradilar. Ibn Sino va Beruniyning ham ziddiyatli shaxslar bo'lgani ma'lum...”[5].

Balki buyuk shaxslardagi ushbu ziddiyatli xislatlar, xatti-harakatlar ularni yangi narsalar yaratishga undagandir? Qanday bo'lmasin, buyuk shaxslar ijodi va faoliyati har doim ham ijtimoiy determinizm talablariga muvofiq kelavermasligini, balki, aksincha, ularda o'z individualligini, hayotiy, ijodiy maqsadini o'jarona himoya qilishga intilishni kuzatamiz. Jamiyat, muhit bilan ular o'rtasidagi ziddiyat ular hayotini qiziqarli, ibratli qiladi.

3. Buyuk shaxslar nafaqat ayrim olgan sohani, shuningdek, insonning ma'naviy-ruhiy olamini, transsendental

tasavvurini, e'tiqodini o'zgartirish borasida ham isloxotchilar bo'lib maydonga chiqadilar. Bu borada Konfutsiy, Buddha, Iso va Muhammad payg'ambarlarning hayoti va faoliyatini misol qilib keltirish mumkin. Konfutsiy nafaqat ta'lim-tarbiya sohasini yaxshi bilgan, shuningdek, u davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdan, tarixiy an'analarni asosida, axloqiy-siyosiy normalarga tayangan holda markazlashgan davlat qurish tarafdori bo'lib chiqadi. Konfutsiylikdagi konservativizm, murosa, ahillik, "oralik prinsipi"ga muvofiq; boshqarish, Osmon, Yer, Odam o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga da'vatlar bilan yaxlit holda, qo'shilib keladi. Sharqona axloq-odob normalarini targ'ib etgani uchun Konfutsiy g'oyalari xitoy xalqining dini darajasiga ko'tarilgan[6].

Yoki Buddani olaylik. U olam va odamni axloqiy-ma'naviy o'zgartirishlar orqali barkamol qilish g'oyasini ilgari surgan. Hayot azob-uqubatlarga to'la, ushbu azob-uqubatlar manbai shaxsda, uning ichki olamida. Demak, insonning ichki ruhiy-ma'naviy olamini isloh qilish, o'zgartirish zarur. Ma'lumotlarga qaraganda, Buddha yoshligida otda chopish, merchanlik va davlat ishlarini boshqarishda katta yutuqlarga erishgan, bo'lg'usi shohlik vazifasidan yaxshi xabardor bo'lgan. Ammo uning qalbi "buyuk ishlar"ga mushtok, edi[7].

XX asrning ikkinchi yarmidan keyin kishilar ma'naviy-ruhiy olamida yuzaga kelgan o'zgarishlarni tahlil qilib K.Yaspers yozadi: "...Endi kishilar transsendentda orom olishga umid qilmay qo'yдилar, ular yerdagi hayotni – yetuk qilishga erishish mumkin deb ushbu o'zgartiriladigan hayotda orom topishga umid qilmoqdalar"[8]. Ammo hayot, yuzaga kelgan muammolar shunchalik kishilarning ma'naviy-ruhiy olamini band qilib qo'ydik, "endi ular o'zining o'zligini sezmoqdalar"[8]. K.Yaspers ushbu "o'zlik"ni insonning ma'naviy-ruhiy olamida yuz bergan o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Prezidentimiz ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan olim, shoir va tarjimon bo'lgan Elbekni yoshlarga ibrat, namuna sifatida tilga olib deydi: "Toshkent viloyatining Xumson qishlog'ida tug'ilib o'sgan taraqqiyparvar olim, shoir va tarjimon Elbek "Millatning najoti – maktabda, muallimda" deb bilgan. Abdulla Avloniyning shogirdi bo'lgan ushbu ta'lim fidoyisi yangi usuldagi ko'plab darsliklar va qo'llanmalar yaratgan. Mustabid tuzum paytida qatog'onga uchragan ma'rifatparvar ajdodimiz nomini abadiylashtirishimiz maqsadida Nurafshon shahrida Elbek nomidagi viloyat markaziy kutubxonasini barpo etamiz. Toshkent viloyatini maktab ta'limi islohotlarining namunasiga aylantirish bo'yicha alohida dastur amalga oshiriladi. Avvalambor, "Yangi O'zbekiston ustozlari" dasturi hayotga joriy etilib, ta'lim sifati past maktablarga boshqa hududlardan eng malakali o'qituvchilar ishga jalb qilinadi"[9].

Buyuk shaxslar har bir sohada uchraydi. O'z kasbini yuksak mahorat, betakror ijodiy mehnat darajasiga ko'targan quruvchi yoki dehqon, muallim yoki haydovchining jasorati kosmonavt yoki sarkardaning jasoratidan kam emas. Dehqon har bir novda, maysa, daraxt uchun, ularning ravon o'sishi, hosilga kirib aholining dasturxoniga kelib tushishi uchun ertayu kech mehnat qiladi, jazirama issiqqa, seryomg'ir bahor kunlariga, goho sel-dovullar zarbiga chidaydi, ekkani narsalarini farzandlaridek avaylab, o'stiradi. Shuning uchun dehqonning jasorati shoirning yoki kosmonavtning jasoratidan kam emas. Demak, hayotning har bir sohasidan buyuk, ibratli, faoliyati va fazilatlarini bilan yoshlarga namuna bo'lgudek shaxslar topiladi.

Ammo ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotga ta'sir etgan, jamiyat, kishilar hayotini, dunyoqarashi va turmush tarzini boshqa tomonga burib yuborgan shaxslar hech qachon ko'p bo'lmaydi. Vaholanki, hech kim bunday ulkan, beqiyos vazifani amalga oshirishni hayotiy maqsadi qilib ko'ymaydi, ijtimoiy taraqqiyot maqsadlari determinizm qonunlariga muvofiq, u yoki bu shaxsni buyuk sarkarda, buyuk davlat arbobi yoki rahnama darajasiga ko'tarilishi uchun imkon beradi. Ushbu imkon yuzaga kelganini sezgan shaxs bor mahorati, iqtidorini va kuch-quvvatini sarflab, tarix sahnasiga chiqadi. Undagi kuch-quvvat, fikrlar, orzu istaklar, g'oyalar vulqonga o'xshaydi, ular o'zligini to'la ro'yobga chiqarmasa, namoyon etmasa, yon-atrofti bezovta qilib, betartib, hatto telbanoma bir kuchga aylinishi mumkin. Buyuk shaxslarda, "daholarda telbalik uchraydi"[10] deganida italiyalik mashhur psixiatr Ch.Lombrozo haq, edi.

Tarixiy faktlar, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari va ziddiyatlari ana shunday buyuk shaxslar hayotida umumlashgan tarzda mujassam keladi. Aynan shuning uchun ham tarixiy merosga murojaat etganda, o'tmishdan tarixiy haqiqat izlanganda buyuk ijodkorlar, sarkardalar, hukmdorlar, mutafakkirlar hayoti, ijodi va faoliyati o'rganiladi. Chunki o'z davrning eng ibratli tomoni, go'zal, olijanob g'oyalari, hatto ziddiyatlari ularning hayoti va harakatlarida yorqin aks etadi. Yoshlarda tarixiy xotirani shakllantirishda buyuk ajdodlarimizga murojaat etishdan maqsad ham ana shu bebaho, betakror hayotga, ijodga munosib avlodni tarbiyalashdir. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev buyuk tarixiy shaxs ibrati bilan yoshlarimizni tarbiyalash muhim vazifa ekanini ta'kidlab deydi: "Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi. Men bunga aminman"[11]. Shuning uchun Prezidentimiz ta'lim tarbiya, yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash to'g'risida gap ketganida tarixiy shaxslarga, ayniqsa, buyuk ajdodlarimiz bo'lgan mutasaffuflar Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror, hadis ilmining yetakchilari Imom Buxoriy, Imom Termiziy, ma'naviyat va ma'rifat darg'alari Alisher Navoiy, Ogohiy, Furqat, Anbar Otin, Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Said Ahmad, Ozod Sharofiddinov, Ibrohim Yusupov, Ibrohim G'ofurov, Zulfiya, Halima Xudayberdiyeva kabilarning nomlarini esga oladi, ulardan ibrat maktabi yaratishga da'vat etadi. Buyuk shaxslarni voyaga yetkazish, tarbiyalash uchun buyuk tarixiy namunalar, buyuk tarixiy ideallar kerakligini butun ta'lim-tarbiya jarayoni, etnopedagogik tajribalar ko'rsatib turibdi.

**Xulosa.** Tarixiy shaxslarning buyuk xizmatlari, ma'naviyat va ma'rifatga, yurt ravnaqi va millat sha'niga qo'shgan katta hissalarini shunchaki tarixga oid emas. Ular etnometodologik ahamiyatga ega artefaktlar, tarixiy-madaniy meros va ibrat maktabi sifatida yoshlarning hayot, Vatan, el-yurt va kelajak haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi. Ushbu tarixiy uzviylik, avlodlar o'rtasidagi aloqalarning bardavomligi millatni millat, xalqni xalq qilib turadi, har bir ijtimoiy tarixiy bosqich kelgusi taraqqiyot uchun pog'ona, tayanch va saboq bo'lishi kerak.

## ADABIYOTLAR

1. Плутарх. Сочинения. – М.: Худ. литература, 1983.
2. Карлейль Т. Герои, почитание героев и героическое в истории. – М.: Эксмо, 2008. – С. 7.
3. Плеханов Г.В. Избранные философские произведения. Том 2. – М.: Политиздат, 1956. – С. 315.
4. Amon Qamar. Ma'naviyat nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Sharq, 2002. – 92 b.
5. Alimasov V. Falsafa yohud fikrlash san'ati. – Toshkent: Falsafa va huquq inst. nashr., 2007. – B. 23-24.

6. История китайской философии. – М.: Прогресс, 1987. – С. 42-44.
7. Радхакришнан С. Индийская философия. Т.1. – М.: Ин. лит-ра, 1956. – С. 68-82.
8. Ясперс К. Смысл и назначение истории. – М.: Политиздат, 1991. – С. 289.
9. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nari. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 227 b.
10. Ломброзо Чезари. Гениальность и помешательство. – Минск: Поппури, 1998. – С. 42.
11. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farvon bo'ladi. Tom 3. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 76 b.